

MAKTABGACHA TA'LIMDA INTERFAOL MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI VA INTERFAOL USULLARNING QO'LLANISHI

Kurbanova Feruza Baxtiyor qizi

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar

25-DMTT direktori

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'linda interfaol mashg'ulotlarning afzal jihatlari, an'anaviy mashg'ulotlardan farqlari yoritilgan. Interfaol mashg'ulotlar bolani fanga qiziqishini va o'rganishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari interfaol mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish, bolaga tasiri va mashg'ulotlarning qiziq bo'lishiga mashg'ulotlarni mazmunli, tushunarli, ajoyib guruh bo'lib ishslashga yordam berishi haqida yoritigan.

Kalit so'zi: Ta'lim, mashg'ulot, interfaol mashg'ulotlar, metod, bilim, an'anaviymashg'ulot, texnologiya, ta'lim-tarbiya.

Bugunning dolzarb muammolaridan biri ta'lim tizimi sifatini yaxshilash, bolalarga sifatli ta'lim berish. Buning uchun pedogoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va tarbiyalanuvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga pedagog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Maktabgach ta'lim uchun zarur va ustuvor yo'naliislardan biri ta'lim mazmuning yangilanishi, darsni ilg'or tajriba va g'oyalarga tayanib, zamonaviylashtirilgan, takomillashtirilgan hamda ilmiy-pedagogik texnologiyalar asosida o'tish zaruriyatini keltirib chiqardi. Chunki mashg'ulot ta'lim-tarbiya berishning asosiy o'zagidir. Tarbiyalanuvchining o'quv mashg'ulotlarini chuqr o'rganib borishi davomida uning bilimi mustahkamlanadi, savodxonligi oshib boradi. Ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini sog'lom avlod qilib voyaga yetkazishda mashg'ulot va darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim vosita hisoblanadi. Mashg'ulot ta'limning asosiy shakli ekan, tarbiyachi shu jarayon o'z shogirdlarining ongli va faol bo'lishi, jamiyatning vatanparvar, adolatparvar, mehnatsevar va fidoyi kishilar bo'lib ulg'ayishlari uchun mustahkam zamin tayyorlashi lozim. Bu jarayon o'quv-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlash uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida quydagilarni amalda qo'llashni taqozo etadi:

- Darslarda interfaol usullardan keng foydalanish;
- Dars jarayonida didaktik materiallar bilan ishslash;
- Ommaviy axborot texnologiyalaridan uzliksiz foydalanish;
- O'quvchilarni innovatsion faoliyatga mustaqil tayyorlash;
- Fanlarni fanlararo integratsiyalash;

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Demak, bugun interfaol mashg'ulotlarni tashkil qilish uchun interaktiv metodlarni amalda joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirishda ma'lum maqsadga erishishda, tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'linda interfaol mashg'ulotlarni tashkil etish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri shakllanib kelayotgan maktabgacha ta'linda tarbiyachining mahorati, interfaol darslarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq etishi, ta'limning yangi-yangi usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalana olishi juda muhimdir.

Interfaol darslarni tashkil etish tarbiyalanuvchilar uchun bilim, ko'nikma, malakani qiziqib o'rghanishlari uchun imkoniyat yaratsa, tarbiyachining tajribasi oshib borishida ko'mak beradi. Maktabgacha ta'lum tahkilotlarda interfaol darslarni tashkil etish o'z o'rnida juda samarali. Masalan, mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadga erishishda, tarbiyalanuvchilar diqqatini bir joyga jamlashda, ularni mashg'ulotga qiziqishini oshirish va faollikka undashda katta ahamiyat kasb etadi.

Bolaning shaxsi shakllanadi, munosabatga kirishishi o'sib boradi. Interfaol metodlar orqali maktabgacha ta'lum tarbiyalanuvchilarida inson faoliyatining shakllanishi rivojlanib, mehnatga layoqati va mas'uliyati shakllanib boradi. Tarbiyalanuvchilarini o'quv materialiga qiziqtirshning birdan-bir yo'li interaktiv metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanishdir.

O'quv rejadagi mashg'ulotlarni o'titishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol mashg'ulotlar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

1. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun tarbiyalanuvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash kerak.
2. Interfaol mashg'ulotda tarbiyalanuvchilarining mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish kerak.
3. Interfaol ta'lum usuli – har bir tarbiyachi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir tarbiyalanuvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lum texnologiyasi — har bir tarbiyachi barcha tarbiyalanuvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir tarbiyalanuvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan nazarda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rghanish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-

metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lum vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Interfaol mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko‘riladi. Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun o‘quvchilarning tayyorliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bular mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalarini va boshqalardan iborat.

Mashg‘ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to‘g‘ri tanlash, tayyorlash hamda mashg‘ulot o‘tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim mashg‘ulotlarida interfaol usullarining qo‘llanishi, kutilgan natijaga erishishning asosiy omili sanaladi. Shunday ekan, har bir darsda interfaol usullardan foydalanish yuqori darajada ijobjiy natija bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.** O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni
- 2.** A.Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika – Toshkent. Innovatsiya – Ziyo.2020.-194-bet
- 3.** O` . Q. Tolipov va M. Usmonboyeva .Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari – Toshkent.Fan. 2006.-260bet
- 4.** O‘qituvchilar uchun turli xil qiziqarli ma’lumotlar veb saytidan.
- 5.** Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017.
- 6.** Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.